



## QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar*






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 8889 tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevralga nisbatan 7507 taga oshgan (o'sish sur'ati 118,4 %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 23 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 8866 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **1094,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan **89,8 %** ga yetdi.

Shumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **96,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **210,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **998,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **85,1 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 69,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **88,6 %**) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>1094,9</b>	<b>89,8</b>	<b>96,6</b>	<b>2,1 m.</b>	<b>998,3</b>	<b>85,1</b>
<b>shaharlar:</b>						
Qarshi	303,8	110,7	78,2	2,3 m.	225,6	93,7
Shahrisabz	114,9	89,9	0,8	131,1	114,1	89,8
<b>tumanlar:</b>						
G'uzor	52,9	84,2	0,7	5,7 m.	52,2	83,3
Dehqonobod	23,0	73,9	0,5	7,6 m.	22,5	72,3
Qamashi	55,9	83,7	1,2	14,3 m.	54,7	82,1
Qarshi	39,5	83,7	1,0	101,2	38,5	83,3
Koson	90,2	90,7	4,3	7,4 m.	86,0	86,9
Kitob	83,4	81,7	1,1	58,2	82,3	82,2
Mirishkor	21,6	89,3	0,5	13,2 m.	21,1	87,4
Muborak	23,4	88,2	2,9	12,6 m.	20,5	77,9
Nishon	36,1	85,3	0,7	5,8 m.	35,5	84,0
Kasbi	27,3	87,7	0,7	7,7 m.	26,7	85,8
Ko'kdala	17,6	41,1	-	-	17,6	41,1
Chiroqchi	96,0	92,7	1,3	30,9	94,7	95,4
Shahrisabz	45,6	81,1	1,5	56,6	44,0	82,3
Yakkabog'	63,4	78,9	1,2	5,1 m.	62,3	77,7

2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Qarshi shahri (**110,7 %**), Chiroqchi (**92,7 %**), Koson (**90,7 %**) tumanlari va Shahrisabz shahrida (**89,9 %**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **111,3 %** ni yoki **1170,7 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati  
oylar kesimida (foizda)  
(2022- yil, 2023- yil yanvar oyi)



2023- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **89,8 %** ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **27,8 %** bilan **303,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Ko'kdala tumani **1,6 %** bilan **21,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **998,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **85,1** % ga kamaydi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,2** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **10,8** % ga o'sdi va **96,6** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,8** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ko'kdala tumani (**99,3 %**), Shahrisabz shahri (**99,3 %**) va Kitob va G'uzor tumanlari (**98,7 %**) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,8 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahri (**25,7 %**), Muborak (**12,5 %**), Koson (**4,7 %**), Shahrisabz (**3,4 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>317,8</b>	<b>87,9</b>
shaharlar:		
Qarshi	1 061,2	108,5
Shahrisabz	799,0	88,6
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	246,5	82,3
Dehqonobod	149,0	72,3
Qamashi	196,9	81,9
Qarshi	150,5	81,6
Koson	299,8	88,6
Kitob	304,5	80,2
Mirishkor	172,3	87,4
Muborak	257,3	86,5
Nishon	224,5	83,4
Kasbi	132,6	85,9
Ko'kdala	98,2	97,4
Chiroqchi	371,7	81,0
Shahrisabz	198,8	95,0
Yakkabog'	231,5	77,3

2023- yilning yanvar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **317,8** ming so'mni (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **87,9** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi (**1061,2** ming so'm), Shahrisabz (**799,0** ming so'm) shaharlari va Chiroqchi tumani (**371,7** ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.




# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **169,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **88,6** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **68,7** mlrd. so'mni (**76,2** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **100,5** mlrd. so'mni tashkil etdi (**95,1** %).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasida yuqori hajmli hududlar (mlrd. so'm)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shahobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>169,2</b>	<b>88,6</b>	<b>68,7</b>	<b>76,2</b>	<b>100,5</b>	<b>99,8</b>

### shaharlar:

Qarshi	20,2	154,8	20,2	154,8	-	-
Shahrisabz	9,2	2,5 m.	9,2	2,5 m.	-	-



### tumanlar:

G'uzor	10,7	80,1	7,9	87,8	2,8	64,0
Dehqonobod	5,2	77,7	0,9	63,3	4,3	81,5
Qamashi	10,7	80,1	2,2	45,8	8,5	99,5
Qarshi	3,8	133,2	-	-	3,8	133,2
Koson	7,6	-	4,2	-	3,4	-
Kitob	8,5	44,0	4,0	25,4	4,5	124,4
Mirishkor	2,8	146,7	1,4	76,1	1,4	12,0 m.
Muborak	6,5	79,2	2,6	38,1	3,9	2,8 m.
Nishon	10,0	116,3	1,2	36,7	8,8	165,2
Kasbi	4,3	113,6	0,9	83,5	3,4	125,6
Ko'kdala	-	0,2	0,0	-	-	-
Chiroqchi	56,5	106,5	3,8	34,1	52,6	81,7
Shahrisabz	5,5	77,3	2,4	47,1	3,1	155,3
Yakkabog'	7,7	58,3	7,7	59,0	-	-

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **68,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**31,9** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>31,9</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>11,3</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>5,7</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>3,4</b>
	<b>Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>2,8</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>4,9</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>3,7</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>0,4</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>3,1</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>1,3</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>0,2</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>-</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **100,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **77,7** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **17,6** mlrd. so‘mni, otlar – **4,7** mlrd. so‘mni, parrandalar – **0,5** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	46,5
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	15,6
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	15,6
	Qo‘ylar	14,3
	Otlar	4,7
	Echkilar	3,3
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,3
	Tovuqlar	0,2
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1768 tani tashkil etib, 2022- yil 1 – fevral holatiga nisbatan 286 taga oshgan va o'sish sur'ati 117,5 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1766 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,1%** ni tashkil etib, **23,5** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **73,4** % ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **92,2** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>23,5</b>	<b>73,4</b>	<b>1,8</b>	<b>140,2</b>	<b>21,7</b>	<b>70,6</b>
<b>shaharlar:</b>						
Qarshi	10,0	76,6	1,7	140,1	8,3	70,2
Shahrisabz	1,9	74,0	-	-	1,9	74,0
<b>tumanlar:</b>						
G'uzor	1,1	75,2	0,2	141,6	0,9	69,6
Dehqonobod	0,5	71,8	-	-	0,5	71,8
Qamashi	1,0	73,4	-	-	1,0	73,4
Qarshi	1,0	66,0	-	-	1,0	66,0
Koson	0,6	79,3	-	-	0,6	79,3
Kitob	1,4	68,4	-	-	1,4	68,4
Mirishkor	0,4	78,6	-	-	0,4	78,6
Muborak	0,9	65,5	-	-	0,9	65,5
Nishon	1,6	63,8	-	-	1,6	63,8
Kasbi	0,6	80,0	-	-	0,6	80,0
Ko'kdala	0,3	73,3	-	-	0,3	73,3
Chiroqchi	0,8	77,6	-	-	0,8	77,6
Shahrisabz	0,6	71,9	-	-	0,6	71,9
Yakkabog'	0,9	71,6	-	-	0,9	71,6

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- fevral holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **71,3** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **67,5** % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **44,0** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **57,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **27,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **95,3** %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi



### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>71,3</b>	<b>100,0</b>
<b>shaharlar:</b>		
Qarshi	54,8	76,9
Shahrisabz	1,3	1,8
<b>tumanlar:</b>		
G'uzor	0,1	0,2
Dehqonobod	0,3	0,4
Qamashi	0,1	0,1
Qarshi	8,9	12,5
Koson	0,6	0,8
Kitob	0,6	0,9
Mirishkor	0,7	1,0
Muborak	0,8	1,1
Nishon	0,3	0,5
Kasbi	0,5	0,7
Ko'kdala	0,1	0,2
Chiroqchi	1,8	2,5
Shahrisabz	0,2	0,3
Yakkabog'	0,2	0,3

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi shahri ( **54,8** mlrd. so'm), Qarshi (**8,9** mlrd. so'm) va Chiroqchi (**1,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **211,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **92,1** % ga kamaydi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **149,9** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **74,9** % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **71,1** % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORKONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Kasbi tumani (**14,7 b.**) va Qarshi shahri (**3,3 b.**) da kuzatildi.

2023- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2051** tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevral holatiga nisbatan **387** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **118,9 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **20** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2418** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>211,0</b>	<b>92,1</b>	<b>61,1</b>	<b>211,7</b>	<b>149,9</b>	<b>74,9</b>
<b>shaharlar:</b>						
Qarshi	108,0	96,1	49,1	3,3 m.	58,9	60,5
Shahrisabz	15,2	83,1	-	-	15,2	84,4
<b>tumanlar:</b>						
G'uzor	6,2	83,7	-	-	6,2	94,9
Dehqonobod	0,4	47,9	-	-	0,4	104,8
Qamashi	3,1	70,2	-	-	3,1	99,3
Qarshi	9,3	94,4	1,6	90,5	7,6	95,3
Koson	11,3	81,5	-	-	11,3	100,3
Kitob	22,7	76,9	-	-	22,7	79,9
Mirishkor	0,8	93,5	0,2	41,7	0,6	157,0
Muborak	1,7	89,8	-	-	1,7	98,2
Nishon	2,1	67,7	-	-	2,1	84,6
Kasbi	11,5	320,4	10,1	14,7 m.	1,4	47,5
Ko'kdala	2,0	83,9	-	-	2,0	83,9
Chiroqchi	5,0	75,9	-	-	5,0	98,1
Shahrisabz	5,5	78,1	-	-	5,5	88,3
Yakkabog'	6,0	88,0	-	-	6,0	105,3



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 75-221-44-28**